

THE IMPORTANCE OF EDUCATION IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Alimov Quwanish Tursinbekovich

Abatov Askar Reyimbaevich

Teachers of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Ibragimova Bibiraba Tayirovna

Karakalpak Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
history teacher

GLOBALLASHUV JARAYONIDA TA'LIM-TARBIYANING AHAMIYATI

Alimov Quwanish Tursinbekovich

Abatov Asqar Reyimbaevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti o`qituvchilari

Ibragimova Bibiraba Tayirovna

O`zbekiston Respublikasi Ichki Ichlar Vazirligi Qoraqalpoq akademik liceyi
tarix fani o`qituvchisi

*Barcha yaratilganlarning ichida eng a`losi-yaxshi tarbiya
topgan insondir*

Epiktet

Summary: This article examines the issues of globalization, its role in the education of the younger generation and children, its role in our lives.

Keywords: Globalization, upbringing, student, youth, national values, history, function, future, factor

Rezyume: Ushbu maqolada yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda va tarbiyalashda globallashuv jarayonining o`rni va roli xaqida so`z qilinadi.

Tayanch so`zlar: Globallashuv, tarbiya, o`quvchi, yoshlar, milliy qadriyatlar, tizim, tarix, vazifa, kelajak, omil

Резюме: В данной статье рассматриваются вопросы глобализаций, его роль в воспитании подрастающего поколения и детей, его роль в нашей жизни.

Ключевые слова: Глобализация, воспитание, ученик, молодежь, национальные ценности, история, функция, будущее, фактор

XXI-asrda globallashuv jarayonlari inson hayoti va faoliyatining barcha jabha va sohalarini qamrab olayotgan dolzarb va keskin muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Globallashuv bayrog`i ostida dunyoni qayta taqsimlashga qaratilgan jiddiy harakatlar ko`zga tashlanmoqda. Globallashuv, bir tomonidan, dunyo hamjamiyati hayotini, jahon siyosati va halqaro munosabatlarini belgilab beruvchi etakchi omilga aylanmoqda, ikkinchi tomondan esa, alohida olingan davlat va hududlar ichki siyosatini tarkib topgan umumdunyoviy sharoit bilan muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Butun dunyoni qamrab olgan va jo`sinqinlik bilan kechayotgan hamda madaniy inqilob sifatida talqin etish mumkin bo`lgan bu jarayonlar ikki, bir-biriga zid, teskari harakatni yuzaga keltirdi. Bir tomonidan, dunyoda etakchilik qilayotgan, mazkur jarayonni faol boshqarishga intilayotgan davlatlar (asosan, rivojlangan

G`arb davlatlari va AQSH) yagona umumjahon madaniyati shakllanishini istashmoqda. “Bugungi kunda butun dunyo milliy madaniyatlarni qayta ishlovchi alohida ulkan “domna pechi”ga aylanmoqda.[1;32]. Bu bilan globallashuv milliy madaniyatlarning o`ziga xosligi yo`qolishi, kam sonli xalqlarning o`z tilini unutishi, hattoki, yo`qolib ketish holatlarini yuzaga keltiradi. Bir paytning o`zida madaniyat libosini kiygan, aslida manqurtlik kasalligi ko`rinishlaridan biri- “ommaviy madaniyat” umumjahon madaniyatiga aylanmoqda. Hozirgi kunda “madaniyat iqtisodiyoti”, “madaniyat industriyasi” kabi tushunchalar tez-tez qo`llanmoqda. Milliy ishlab chiqarishning keng yoyilishi va milliy mahsulotlarning jahon bozoriga chiqishi, Turkiyada ishlab chiqarilgin “Mersedes”, Xitoyda ishlab chiqarilgan yapon texnikasi, butun jahonni egallagan “Makdonal’d”, “Koka-kola” kabi hodisalar mazkur tushunchalar doirasida bo`lib, ommaviy madaniyatni nusxalab ko`paytirish va u orqali dunyoda hukmronlik qilish vazifasini o`tamoqda. Madaniyat ramzları va madaniy axborot ommaviy ishlab chiqarish “global madaniyat” ning shakllanishiga olib keldi. O`z-o`zidan ayonki, kuchli davlatlar o`z hayotiy, avvalo, madaniy ramzlarini himoya qilish uchun barcha vositalarni ishga soladi, masalan, o`z “yashash tarzları” va madaniyatlarini boshqa hududlarga yoyish kabi. Boshqacha aytganda, madaniy ramzlar intervenciyasi orqali dunyoni o`z ta’siri ostiga olishga harakat qiladi. SHu jihatdan Manuel’ Kastel’sning fikrlari diqqatga sazovor: “Axborotlashgan jamiyatda,-deb yozadi u, -hokimiyat fundamental pog`onada madaniy kodlarga kirib boradi. Odamlar va institutlar esa ular orqali hayotni tasavvur etadi hamda tegishli qaror, jumladan, siyosiy qarorlar qabul qiladi. Shu ma’noda, hokimiyat, u real bo`lganda, nomoddiy bo`ladi”[2;67].

Shuning uchun ham turli soha olimlari globallashuv jarayonlariga o`z munosabatini bildirish, bu jarayonlarning oqibatlarini talqin etish hamda kelajakka ta’sirini o`rganishga harakat qilmoqda. Ma’rifat orqali jamiyatni o`zgartirishga jazm qilgan halqimizning buyuk merosi, qadriyatlar bir necha asrlar davomida shakllangan bo`lsa ham, ilm-fan va Yangi texnologiyalar taraqqiy etgan, kishilar dunyoqarashi, tushuncha va tasavvurlari kengaygan, ta’lim-tarbiya tizimi yangi bosqichga ko`tarilgan bugungi davrda ham zarracha qimmatin yo`qotmagan. Chunki jamiyat texnologik jihatdan qanchalik taraqqiy etmasin, har bir tariixiy davr inson ma’naviy ma’rifiy kamoloti, yoshlar tarbiyasi borasida yangidan-yangi, murakkab masalalarni ko`ndalang qo`yaveradi. Glaballashuv jarayoni ta’sirida mazkur masala yanada jiddiy tus olmoqda. [3;18]

Hech qachon bir yoki bir necha kishi yoki oilalar urf-odatlar, marosimlarni yarata olmaydi. Ta’kidlash joizki, an’analar ibridoiy madaniyat davridan buyon davom etib kelayotgan ijtimoiy hodisa bo`lib, jamiyat taqdiriga bevosita ta’sir ko`rsatadi. [4;25] Bugungi kunda mahallalar olib borayotgan tadbirlar orasida qizlarimiz – bo`lg`usi onalar tarbiyasida ustivor ahamiyat kasb etib bormoqda. E’tibor berganmisiz, ahil, namunali mahallalarda xulqi yomon, tarbiysi og`ir qizlar umuman uchramaydi. Chunki uni nafaqat ota-onasi, balki butun mahalla bo`lib tarbiyalaydi. Kelin qilmoqchi bo`lgan qizning uyiga kelishdan oldin, eng avvalo qushnilardan qiz haqida surishtiradi. Bu esa inson taqdirining tug`ridan tug`ri tarbiyaga bog`liqligini ko`rsatadi. Agar farzandi biror yutuqqa erishsa ota-onas «boshimni baland ko`tarib yurdim», agarda farzand qandaydir xuqukbazarlik ish qilsa «mahallada yurolmay qoldim» deb afsus bilan aytgan gaplarni eshitamiz. Mahalla oqsoqolining ota-onaga «farzandingizning bu ishi chakki bo`libdi»,-degan tanbehi xatto sudning eng yuqori jazosidan ham og`irroq botishi mumkin. Bu ham «mahalla-ta’lim maktabi» ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Mahalla joylashgan hudud shart-sharoitlarini mazkur muammo nuqtai nazaridan aniq hisobga olish ham muhimdir. Mahallalar, uchastkalar ko`p qavatli binolar, yoki ular aralash bo`lgan makonlar, qishloq, ovullardan iborat bo`ladi. Uchastkalardan iborat mahallalarda milliy an’analarimiz kuchli bo`lgani uchun bolalar tarbiyasini mahalla miqyosida kuzatish, ular huquqlarini himoya qilish ham ancha engil. Ammo afsuski ko`p qavatli binolarda ba’zan qushnisining kimligini bilmaydi. Odamlar qushni bolalarning ko`chada nimalar qilayotgani bilan qiziqmaydi ham.

Jahon miqyosida ro`y berayotgan va “madaniy inqilob” tusini olayotgan o`zgarishlarining natijasi o`laroq, bir-biriga zid va bir paytda bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lgan ikki harakat ko`zga tashlanmlqda. Bular – kishilik madaniyatining rang-barangligini inkor etish tarzida madaniy unifikaciyalash (birlashtirishga) va unga qarshilik ko`rsatish asnosida boshlangan madaniy identifikasiyalash (ajralishga), aniqrog`i, davlat va xalqlarning madaniy o`ziga xosligini saqlab qolishga intilishdir. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganing asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob’ektiv tan olish kerak – bugungi kunda xar qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq ko`shnilar,

balki jahon miqyosida boshqa mintaqqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog`lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natiyjalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.[5;111]

Biz globallashuv jarayonida g`arbning turmush tarzi, axloqini ko`r-ko`rona qabul qila olmaymiz. Bu bizning ming yillik urf-odatlarimizga, an'ananalarimizga yot. Chunki xaddan tashqari individualizmga berilish, xudbinlik, o`zimbo'larchilik, shaxsiy manfaat yo`lida hech narsadan tap tortmay, bosib yanchib ketish kabi xususiyatlar xalqimizning tabiyatiga aslo to`g`ri kelmaydi.[6;23]

Xulosa qilib aytganda biz uchun oila, mahalla, el yurt muqaddas. Bu xalqimizning azaliy bebaho ma'naviy tuyg`usi. Bu tuyg`u asrlar mobaynida xalqimizning jon-joniga, qon-qoniga singib ketgan. Uni asrab avaylash har birimizning burchimiz bulib, nafaqat bugungi kunning, balki kelajak masalasi xisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ishandjanov Laziz Sobirdjanovich «Globallashuv sharoitida madaniyatlararo integraciya masalalari» www.soc.pu.ru 11.04.2009.
2. Ivanov D.V. Evolyuciya konsepcii globalizacii. // <http://www.soc.pu.ru/> 11.04.2009.
3. «Barkamol avlod tarbiyasi» Toshkent 2005 yil. «Akademiya». 18b.
4. Yoshlarni milliy istiqlol g`oyasi ruhida tarbiyalash – vatan tinchligi va xavfsizligini mustaxkamlashning muhim omili». Ilmiy-amaliy konferenciya T.2004. 25-b
5. I.Karimov. «YUksak ma'naviyat – engilmas kuch». T. «Ma'naviyat» 2008 yil. 111-b.
6. «Ma'rifatli jamiyat muxoliflari». «Akademiya» nashriyoti T.2005yil.23b